

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Ertak sizga yoqdimi?
- Undan qanday ibrat oldingiz?

Fikrni davom ettiring: "*Men bugun darsda ... bilib oldim.*"

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Kompyuter va telefondan foydalanish qoidalarini ishlab chiqing. Siz o'zingiz bu qoidalarga amal qilasizmi?

2-Mavzu: Elektr manbalari

Darsning maqsadi:

Dilfuza Shomalikovaning "Chiroqning uyi qayerda?" hikoyasi bilan tanishtirish orqali elektr manbalari haqida ma'lumot berish;

Elektrostansiyalar haqida tushunchalarini kengaytirish va elektr tokidan oqilona foydalanishga o'rgatish;

Bog'lanishli nutqini shakllantirish;

Tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilishini oshirish.

Tayanch so'zlar: elektrostansiyalar, elektr toki, oqilona foydalanish.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: *Gapdagi xohlagan bitta so'zni o'zgartiring va boshqa gap tuzing.*

Davron chiroqni o'chirdi.

II. O'tilganlarni takrorlash.(10 daqiqa)

"Davom ettir" mashqi orqali ertak mazmuni so'zlab beriladi. O'zlari amal qiladigan kompyuter va telefondan foydalanish qoidalari o'qitiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (27 daqiqa)

Amaliy topshiriq: *Darslikda berilgan rasm mazmunini gaplar bilan ifodalang.*

Muhokama uchun savollar.

1. Gap tuzishda qaysi so'zlargan foydalandingiz?
2. Gapning mazmuni nimaga qaratilgan?
3. Sizga qaysi gap ko'proq yoqdi?

Mavzuni tushuntirish.

Suhbat uyushtiriladi. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1. Aziz bolajonlar, elektr toki qanday paydo bo'lgani haqida o'ylab ko'rghanmisiz?
2. Ular uyimizga yetib kelganicha qanday yo'lni bosib o'tgan deb o'ylaysiz?
3. Bugungi kunimizni elektr quvvatisiz tasavvur qila olamizmi? Nima uchun?

O'quvchilarning fikri tinglanadi va to'ldiriladi. Darslikdagi ma'lumot o'qitiladi.

- Bugun elektr quvvatisiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki uyimizdagi ko'pgina jihozlar, chiroqlarimiz elektr quvvati yordamida ishlaydi.

Matn ustida ishslash.

Dilfuza Shomalikovaning "Chiroqning uyi qayerda?" hikoyasi navbatma-navbat o'qitiladi. Hikoya yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Hikoyadan qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?
2. Chiroqning uyi haqida nima deya olasiz?
3. Ayting-chi, nega chiroqlarni kunduzi o'chirib yurish kerak?
4. Hikoyadan olgan xulosangiz bilan o'rtoqlashing.

"Elektrostansiyalar" matni o'qitiladi va matn yuzasidan o'quvchilar "**3ta fikr**" **mashqini** o'tkazishadi. O'quvchilar matndan esida qolgan ma'lumotni 3 ta gap bilan ifoda etishlari kerak bo'ladi.

Darslikda berilgan topshiriq juftlikda bajariladi. Harflardan so'zlarni hosil qilishadi va elektr manbalarini bilib olishadi. (Yoqilg'i, suv, quyosh, shamol)

Mashq daftari bilan ishslash.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

Elektr quvvatini tejash uchun tavsiyalar yozishadi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. *(3 daqiqa)*

Fikrni to'ldiring.

Bugun darsda menga qiziq bo'ldi.

Mashq daftaridagi "BBB" mashqi bajariladi.

V. Uyga vazifa. (*2 daqiqa*)

Hikoyani o'qing. Shamol va quyosh manbalari haqida ma'lumot to'plang. Hikoyani elektrostansiyalar haqidagi bilimlaringiz bilan boyiting va qayta so'zlang.